Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI	1247
Jabbarov Nurbek Atanazarovich	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI	1252
Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	1256
Salamov Islom Tashkazakovich	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
Касимова Наргиза Сабитджановна	
SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
HUDUDIIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1274
Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Sherali qizi	



HUDUDIIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Shodiyev Sanjar Ruzukulovich

Navoiy davlat universiteti kafedra mudiri,
geografiya fanlari doktori, professor

Abdurahmonova Shahlo Sherali qizi

Navoiy davlat universiteti
2-kurs magistranti
shahloabdurahmonova1301@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududiy marketing konsepsiyasi asosida Navoiy viloyatining ekoturistik resurslarini rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, noyob landshaftlari, qo'riqlanadigan tabiiy hududlari hamda ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari marketing yondashuvi nuqtai nazaridan baholangan. Shuningdek, hududiy brendni shakllantirish, turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish, infratuzilmani takomillashtirish va raqamli marketing instrumentlaridan samarali foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ekoturistik salohiyatdan oqilona foydalanish hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, aholi bandligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Maqolada Navoiy viloyatida ekoturizmni rivojlantirishning ustuvor strategik yo'nalishlari hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, turistik soha, turistik industriya, turistik mahsulot, turistik klaster, turistik marketing, turistik xizmat, turistik hudud, investitsion iqlim, turistik destinatsiya, turizm xizmatlari eksporti.

Abstract. This article analyzes the directions for developing the ecotourism resources of the Navoi region based on the concept of territorial marketing. The study evaluates the natural and geographical features of the region, its unique landscapes, protected natural areas, and opportunities for developing ecotourism from a marketing perspective. It also examines the issues of forming a regional brand, diversifying tourism products, improving infrastructure, and effectively using digital marketing tools.

The research findings indicate that the rational use of ecotourism potential contributes to the diversification of the regional economy, increases employment, and ensures sustainable development. The article proposes priority strategic directions and practical recommendations for the development of ecotourism in the Navoi region.

Key words: tourism, tourism sector, tourism industry, tourism product, tourism cluster, tourism marketing, tourism services, tourist area, investment climate, tourist destination, export of tourism services.

Аннотация. В данной статье проанализированы направления развития экотуристических ресурсов Навоийской области на основе концепции территориального маркетинга. В исследовании с позиций маркетингового подхода оценены природно-географические особенности региона, его уникальные ландшафты, охраняемые природные территории, а также возможности развития экотуризма. Кроме того, рассмотрены вопросы формирования территориального бренда, диверсификации туристского продукта, совершенствования инфраструктуры и эффективного использования инструментов цифрового маркетинга.

По результатам исследования установлено, что рациональное использование экотуристического потенциала способствует диверсификации региональной экономики, повышению занятости населения и обеспечению устойчивого развития. В статье разработаны приоритетные стратегические направления и практические рекомендации по развитию экотуризма в Навоийской области.

Ключевые слова: туризм, туристская отрасль, туристская индустрия, туристский продукт, туристский кластер, туристский маркетинг, туристское обслуживание, туристская зона, инвестиционный климат, туристская дестинация, экспорт туристских услуг.



KIRISH

Turizm sohasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bandlikni ta'minlash, valyuta tushumlarini oshirish hamda soliq bazasini kengaytirishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm orqali shakllanadigan valyuta tushumlari hajmi ko'pincha xorijiy donorlardan olinadigan moliyaviy yordamlar hajmidan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. World Travel & Tourism Council ma'lumotlariga ko'ra, sayohat va turizm sohasiga sarflangan har bir dollar iqtisodiyotga uch dollardan ortiq qo'shimcha daromad keltiradi. Shuningdek, ushbu sohada dunyo miqyosida 100 milliondan ortiq aholi band bo'lib, ayniqsa, yuqori toifadagi mehmonxonalar iqtisodiy toifadagi mehmonxonalarga nisbatan ikki baravar ko'proq ish o'rinlarini yaratishi bilan ajralib turadi.

Hozirgi kunda turizmni jadal rivojlantirish, sohaga investitsiyalarni keng jalb etish hamda malakali kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Respublikamizda turizm faoliyati ko'p hollarda qadimiy shaharlar va tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida shakllanib kelgan. Shu bilan birga, mamlakatning betakror tabiiy resurslari, milliy qo'riqxonalari, tog'li hududlari va noyob landshaftlari turizmni, ayniqsa ekoturizm yo'nalishini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Xususan, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki hududlarning ijtimoiy rivojlanishini jadallashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahon miqyosida turizm sohasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushini oshirish, hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida turistik-rekreatsiya obyektlaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur ilmiy-tadqiqot ishida mamlakatimizda turistik xizmatlar bozorini rivojlantirishning mavjud muammolari, foydalanilmayotgan imkoniyatlari hamda istiqbolli yo'nalishlari tizimli ravishda tahlil qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm bozorida tovar va xizmatlar iste'molchilarining ehtiyoj hamda xohishlari muntazam ravishda o'zgarib borishi mazkur sohada moslashuvchan, innovatsion va strategik yondashuvlarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Raqobat tobora kuchayib borayotgan sharoitda turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini saqlab qolish, ularni samarali targ'ib qilish, sotish kanallarini diversifikatsiya qilish hamda iste'molchi talabiga moslashtirish turizm menejmentining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, turizm sohasida marketing va menejment integratsiyasiga asoslangan, hududiy xususiyatlarni hisobga oluvchi boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hududning turistik resurslari o'ziga xos iqtisodiy kategoriya hisoblanib, ular nafaqat tabiiy va madaniy boyliklarni, balki xizmat ko'rsatish infratuzilmasi, transport-kommunikatsiya tizimi, axborot muhiti hamda hududning imijini ham o'z ichiga oladi. Turistik resurslar boshqa resurs turlaridan farqli ravishda rekreatsion, estetik, madaniy va ijtimoiy qiymatga ega bo'lib, ularni tasniflashda kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanish zarur.

Turistik resurslarni ilmiy tasniflash masalasi turizm nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida turli davrlarda olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, rus iqtisodchisi Trusova turistik resurslarni uch asosiy guruhga ajratadi:

1. Tabiiy resurslar – iqlim, atmosfera havosi, landshaft, dengiz va daryolar, tog'lar, o'rmonlar hamda boshqa tabiiy muhit elementlari;
2. Inson mehnati bilan yaratilgan resurslar – me'moriy obidalar, tarixiy inshootlar, haykallar, san'at asarlari va madaniy meros obyektlari;
3. Qo'shimcha resurslar – turistik faoliyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi infratuzilma obyektlari, jumladan transport, joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish korxonalari hamda boshqa xizmat ko'rsatish tizimlari [1].

Mazkur tasnif turistik resurslarning tarkibiy tuzilishini aniqlash va ularni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda esa ushbu tasnifni innovatsion va raqamli resurslar, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, onlayn platformalar, hududiy brend va imij elementlari bilan boyitish zarurati yuzaga kelmoqda.

Rossiyalik olimlardan K. Volkov turistik marketingning shakllanishi va rivojlanishini marketing nazariyasining alohida yo'nalishi sifatida tadqiq qilgan. Uning fikriga ko'ra, marketing dastlab moddiy ishlab chiqarish sohalarida tovarlarni bozorga samarali olib chiqish vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, hozirgi kunda turistik korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va daromadlilik darajasi ko'p jihatdan ular tomonidan qo'llanilayotgan marketing vositalari va strategiyalariga bog'liq hisoblanadi [2].



Tizimli yondashuv asosida turizmni tadqiq etgan olimlar ushbu sohani murakkab tizim sifatida tavsiflash imkonini beruvchi turli ilmiy modellarga asos solganlar. Ushbu yo'nalishdagi muhim yondashuvlardan biri professor N. Leyper tomonidan ishlab chiqilgan model hisoblanadi. Mazkur modelga ko'ra, turizm quyidagi uch asosiy elementdan iborat tizim sifatida talqin qilinadi:

- turistlar;
- turizm industriyasi;
- turistlarning kelib chiqish hududi, tranzit hudud hamda turistik destinatsiyani o'z ichiga oluvchi geografik komponent [3].

"Turistik destinatsiya" tushunchasi turli ilmiy yondashuvlar asosida izohlanadi. Jumladan, V. Altov destinatsiyani iste'molchi nuqtai nazaridan ma'lum bir maqsadli hudud yoki tashrif buyuriladigan joy sifatida tavsiflaydi. D. Pirs esa ushbu tushunchani psixologik nuqtai nazardan izohlab, destinatsiyani sayyohlar tashrif buyurgan hududda shakllanadigan ijobiy taassurotlar, hissiyotlar va tajribalar majmui sifatida talqin etadi [4].

Mamlakatimiz olimlaridan Sh. Ergashxodjaeva o'z tadqiqotlarida turizm sohasida raqamli marketing texnologiyalarini qo'llash masalalarini chuqur o'rgangan. Uning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalar turistik xizmatlar sifatini oshirish, marketing samaradorligini kuchaytirish hamda xizmat ko'rsatish xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi [5].

Sohaning yetuk mutaxassislardan biri M. Alimova esa o'z ilmiy ishlarida turizm marketingining o'ziga xos xususiyatlarini asoslab bergan. Uning fikricha, turizm marketingining asosiy vazifasi turistik mahsulotni shakllantirish, uni iste'molchiga yetkazish va natijada turistik xizmatlarni iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan mahsulot sifatida namoyon etishdan iborat [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turistik mahsulot va xizmatlar iqtisodiyotning real sektorida yaratiladigan tovar va mahsulotlardan muayyan jihatlar bilan farqlanadi. Ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular dastlab moddiy shaklda namoyon bo'lmaydi, balki iste'mol jarayonida turistning ehtiyojlari qondirilishi va qoniqish hosil qilishi orqali iqtisodiy qiymat kasb etadi. Shu jihatdan, turistik mahsulot va xizmatlarning marketingi o'ziga xos yondashuv va usullarni talab etadi.

Tadqiqot jarayonida turizm sohasidagi marketing faoliyati iqtisodiyotning real sektor korxonalari marketingi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Bunda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish va ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Olingan natijalarni umumlashtirish asosida turistik mahsulot va xizmatlar marketingining hududiy xususiyatlari aniqlandi hamda ekoturizm resurslaridan samarali foydalanish va hududiy turistik marketingni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm xizmat ko'rsatish sohasining muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotning eng yirik va dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning yuqori sur'atlarda rivojlanishi va katta hajmdagi valyuta tushumlarini shakllantirishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham sezilarli multiplikativ ta'sir ko'rsatib, turizm industriyasining kompleks tarzda rivojlanishiga xizmat qiladi.

2025-yil yakunlariga ko'ra, jahon turizm sohasi pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonini muvaffaqiyatli davom ettirdi. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro sayyohlar soni 1,52 milliard nafarni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 4 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkich 2009–2019-yillarda kuzatilgan o'rtacha 5 foizlik yillik o'sish sur'atlariga yaqinlashganini ko'rsatadi. Sayyohlik oqimining ortishida global miqyosda sayohatga bo'lgan yuqori talabning saqlanib qolishi, yirik turizm bozorlarining barqaror rivojlanishi, aviatnovlar sonining ko'payishi hamda vizaviy tartib-taomillarning soddalashtirilishi muhim omil bo'ldi. Shu bilan birga, inflyatsiya va global iqtisodiy noaniqliklarga qaramay, xalqaro sayohatlarga bo'lgan qiziqish barqaror darajada saqlanib qoldi.

Mintaqalar kesimida Yevropa yetakchi o'rinni egallab, 793 million xalqaro sayyohni qabul qildi. Afrika mintaqasida 8 foizlik o'sish qayd etilib, ayniqsa Shimoliy Afrika davlatlarida yuqori natijalarga erishildi. Yaqin Sharq mintaqasi esa pandemiyadan oldingi davr ko'rsatkichlariga nisbatan eng yuqori tiklanish sur'atlarini namoyon etdi. Amerika mintaqasida o'sish sur'atlari nisbatan past bo'lishiga qaramay, Janubiy va Markaziy Amerika davlatlarida ijobiy dinamik rivojlanish kuzatildi. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi ham tiklanish jarayonini izchil davom ettirib, ayrim submintaqalarda ikki xonali o'sish sur'atlari qayd etildi.

2025-yilda jahon turizm daromadlari 2,2 trillion AQSh dollariga yetib, tarixiy rekord darajani tashkil etdi. Ayrim davlatlar, jumladan Braziliya, Misr va Marokash turizm sohasida ayniqsa yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Mutaxassislarning prognozlariga ko'ra, 2026-yilda xalqaro turizm hajmi yana 3–4 foizga oshishi kutilmoqda. Bunda yirik xalqaro tadbirlar, jumladan Qishki Olimpiya o'yinlari va futbol bo'yicha jahon chempionati xalqaro



sayohatlar hajmining yanada ortishiga xizmat qilishi prognoz qilinmoqda. Umuman olganda, global turizm barqaror rivojlanish yo'nalishiga qaytmoqda.

2025-yil davomida O'zbekistonga amalga oshirilgan turistik tashriflar soni oldingi yilga nisbatan 46,8 foizga oshib, jami 3,7 million kishini tashkil etdi. Eng ko'p sayyohlar Qirg'iziston Respublikasidan tashrif buyurgan bo'lib, yil davomida ushbu mamlakatdan 3,3 million nafar fuqaro kelgan, shundan taxminan 300 ming nafari dekabr oyiga to'g'ri keladi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarni Tojikiston va Qozog'iston egallab, har bir davlatdan 2,7 million nafardan sayyoh tashrif buyurgan, dekabr oyida esa har biridan o'rtacha 200 ming nafardan turist kelgan. To'rtinchi o'rinni Rossiya Federatsiyasi egallab, ushbu mamlakatdan 984,4 ming nafar sayyoh tashrif buyurgan, shundan 60 mingdan ortig'i dekabr oyiga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda Afg'oniston (476,7 ming sayyoh, shundan 47,3 ming nafari dekabr oyida) va Turkmaniston (370 ming sayyoh, shundan 28,6 ming nafari dekabr oyida) qayd etilgan. Xitoy Xalq Respublikasidan kelgan turistlar soni esa vizasiz rejim joriy etilgandan so'ng keskin oshib, to'rt barobar ko'paygan va 278,9 ming nafarni tashkil etgan, shundan 28,4 ming nafari dekabr oyida tashrif buyurgan. Shuningdek, eng ko'p sayyoh tashrif buyurgan davlatlar o'ntaligiga Turkiya (175 ming nafar), Hindiston (80,8 ming nafar) va Janubiy Koreya (46,3 ming nafar) ham kirgan bo'lib, ularning dekabr oyidagi tashriflari mos ravishda 13 ming, 7,4 ming va 2,2 ming nafarni tashkil qilgan.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan kompleks strategiya asosida olib borilmoqda. Ushbu strategiya mavjud yutuqlarni mustahkamlash, turistik infratuzilmani kengaytirish va milliy turizm mahsulotining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida 2030-yilga qadar turistik xizmatlar hajmini 20 milliard AQSh dollariga yetkazish hamda xorijiy sayyohlar sonini ikki baravar oshirish vazifasi belgilangan.

Mazkur strategik maqsadlarni amalga oshirish doirasida mamlakatning tarixiy shaharlarida turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, Samarqand shahrida Registon maydoni, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek rasadxonasi va Shohi-Zinda majmuasini o'zaro bog'lovchi zamonaviy piyodalar yo'laklari va ko'priklar qurilishi rejalashtirilgan. Xiva shahrida esa tarixiy meros obyektlarini namoyish etishda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida immersiv "aqlii muzey-shahar" konsepsiyasini joriy etish ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, yangi turistik hududlarni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida Shahrisabz shahri yaqinida "Gelon" tog' turizm kompleksining birinchi bosqichini ishga tushirish, Navoiy viloyatida esa yuqori tog' hududida joylashgan "Arashan" dam olish zonasini tashkil etish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi arxeologik yodgorliklarni o'zaro bog'lovchi turistik halqa tashkil etilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu hududlararo turistik oqimni samarali taqsimlash va uzoq hududlarning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Turizm sohasida investitsiya faoliyatini rag'batlantirish maqsadida umumiy qiymati 4 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan 3,5 mingta xizmat ko'rsatish loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Mehmonxona infratuzilmasini rivojlantirish doirasida "Heritage Hotels of Uzbekistan" dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur tarixiy meros obyektlari negizida butik-mehmonxonalar tashkil etishni nazarda tutadi hamda loyiha ishtirokchilariga soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etiladi. Bundan tashqari, yangi turistik obyektlar qurish uchun 2028-yil oxirigacha 5 ming gektar yer maydonlarini ochiq savdoga chiqarish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, vizaviy tartiblarni soddalashtirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi imijini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, Xitoy fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilishi natijasida 2025-yilda ushbu mamlakatdan kelgan turistlar soni deyarli to'rt barobar oshdi. Bundan tashqari, xalqaro aviareyslar soni sezilarli darajada ko'paytirilib, Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan yangi aviaqatnov yo'nalishlari yo'lga qo'yilmoqda.

Umuman olganda, amalga oshirilayotgan strategik chora-tadbirlar mamlakatda zamonaviy turistik infratuzilmani shakllantirish, milliy turizm mahsulotining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish va turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonlar hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mamlakatning investitsiya jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mehnat natijasi muayyan tovar yoki mahsulot bo'lgan an'anaviy ishlab chiqarish sharoitida marketing nisbatan aniq mazmun va mohiyatga ega bo'ladi. Turizm sohasida esa faoliyat natijasi turistik mahsulotda mujassamlashadi va, o'z navbatida, turizm marketingi aynan turistik mahsulotga xos bo'lgan jihatlarni bozor nuqtai nazaridan takomillashtirishni nazarda tutadi. Odatda marketingning umumqabul qilingan yagona ta'rifi mavjud emasligi sababli, turizm marketingini ham yagona va universal tarzda talqin qilish imkoniyati cheklangan [10].

Turizm marketingi turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar tomonidan marketing tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish jarayonini o'z ichiga oladi. Bunda mijozlarning ehtiyojlariga moslashtirilgan



xizmatlarni rivojlantirish, turistik mahsulotni shakllantirish, uni bozorga chiqarish va samarali targ'ib qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Jahon turizm tashkiloti (JST) tomonidan berilgan "turist" tushunchasi ta'rifiga asoslanib, fransuz mutaxassislari Lankar va Ole turizm marketingini belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun ishlab chiqilgan asosiy usullar va yondashuvlar majmui sifatida e'tirof etadilar [8].

Ushbu usul va yondashuvlarning asosiy yo'nalishi korxonalar tomonidan turistik xizmatlar sohasida mavjud va yashirin ehtiyojlarni aniqlash, moliyaviy jihatdan samarali faoliyat yuritish yo'llarini izlash hamda psixologik va ijtimoiy omillar nuqtai nazaridan iste'molchilarning ehtiyojlarini to'liq qondirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Mehmondo'stlik va turizm sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar o'zlari ham bozorga taklif etilayotgan xizmatlarning ajralmas qismi ekanligini chuqur anglashlari zarur. Masalan, telefon qo'ng'iroqlariga javob berish, mehmonlarni kutib olish, ularning muammolarini hal qilish kabi oddiy ko'ringan jarayonlar ham turistik xizmat sifati va korxona imijini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turistik korxonalar o'z faoliyatida ushbu jihatlariga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Xizmat ko'rsatish sohasida har bir xodim ma'lum darajada marketing funksiyasini bajaradi va iste'molchiga xizmat ko'rsatish sifati orqali korxona obro'siga bevosita ta'sir ko'rsatadi [11].

Turizm faoliyatining deyarli barcha ishtirokchilari o'z faoliyatida marketing elementlaridan foydalanish zarurati bilan dush keladilar.

Turistik mahsulot — bu sayyohlarning muayyan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va ular tomonidan to'lanadigan xizmatlar majmuidir. Unga vositachilik, ekskursiya, kommunal, tarjimonlik, mehmonxona, transport, maishiy va boshqa xizmat turlari kiradi.

"Turistik mahsulot" tushunchasi tor va keng ma'noda talqin qilinadi:

Tor ma'noda, turistik mahsulot turizm industriyasining alohida subyekti tomonidan ko'rsatiladigan xizmatni anglatadi (masalan, mehmonxona xonasi, aviakompaniya xizmati yoki turoperator paketi).

Keng ma'noda esa turistik mahsulot turistik sayohatni tashkil etuvchi barcha tovar va xizmatlar majmuini ifodalaydi. Asosiy turistik mahsulot sayyohlarga yagona paket ko'rinishida taqdim etiladigan kompleks xizmat hisoblanadi.

Turistik mahsulot iste'molchi uchun jozibador va foydali bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, turizm marketingi turistik korxonalar tomonidan tijorat maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan tizimli marketing chora-tadbirlari majmui sifatida talqin etiladi.

Shundan kelib chiqib, turizm marketingiga quyidagi ta'rif berish mumkin:

Turizm marketingi — bu turistik xizmatlarni bozordagi talabga mos ravishda doimiy muvofiqlashtirish hamda ularni raqobatchilarga nisbatan samaraliroq va foydaliroq shaklda taklif etish tizimidir.

Mazkur ta'rif turizm marketingini tashkil etishda quyidagi muhim jihatlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi:

1. Marketing faqat reklama va sotish bilan cheklanmaydi, balki iste'molchilar ehtiyojlariga mos ravishda korxona faoliyatini tashkil etishni ham o'z ichiga oladi.

2. Marketing — bu doimiy va uzluksiz amalga oshiriladigan jarayondir.

3. Turistik korxona faoliyatini tashqi bozor muhiti bilan uzviy bog'lash zarur.

4. Iste'molchi ehtiyojlarini doimiy tahlil qilish va prognozlash muhim ahamiyatga ega.

5. Yuqori sifatli xizmat ko'rsatish orqali barqaror iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

Turizm marketingi turli mamlakatlar tajribasi asosida shakllangan va vaqt o'tishi bilan takomillashib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan turizm marketingining yangi konsepsiyalari shakllanib bormoqda.

Shveytsariyalik olim E. Krippendorf turizm marketingini hududiy, milliy va xalqaro darajada turizm korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish tizimi sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, ushbu faoliyatning asosiy maqsadi iste'molchilar ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishishdan iborat [8].

M. Alimovaning ta'kidlashicha, hududiy turizm bozorida integratsiyalashgan marketing konsepsiyasini amalga oshirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- bozor imkoniyatlarini tahlil qilish;
- marketing strategiyalarini ishlab chiqish;
- innovatsion turistik mahsulotlarni shakllantirish;
- turistik mahsulotni bozorda samarali targ'ib qilish;
- milliy va hududiy marketing dasturlarini amalga oshirish [7].

Turizm sohasida manfaatdor tomonlar, jumladan turistlar, mehmonxona egalari va mahalliy aholi o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik turizm xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Turizm iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turistik oqimlarning ortishi hududiy iqtisodiyotda multiplikativ samara hosil qilib, xizmat ko'rsatish, transport, savdo va boshqa sohalarning rivojlanishiga turtki beradi.



Navoiy viloyati turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega hudud hisoblanadi. Hududdagi eng yirik ekoturizm obyektlaridan biri — Aydarko'l hisoblanadi. Ushbu sun'iy suv havzasi 1969-yilda shakllangan bo'lib, bugungi kunda qushlarni kuzatish, ekologik turizm, dam olish va ilmiy turizm uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Qizilqum viloyatning markaziy landshaft tipini tashkil etadi. Bu hudud cho'l sarguzasht marshrutlari, ekstremal trekking, sahro flora va faunasini o'rganish, qum serfingi va fotosafari kabi turistik faoliyat turlariga boy.

Sarmishsoy (Sarmish darasi) Qorator tog'lari yaqinida joylashgan bo'lib, arxeologiya va tabiatni o'zida mujassam etgan noyob hudud hisoblanadi. Bu yerda qadimiy petrogliflar, tog' landshaftlari, yovvoyi o'simlik va hayvonot dunyosini kuzatish, ochiq havoda piyoda ekskursiyalar va ilmiy izlanish marshrutlarini tashkil etish imkoniyatlari mavjud.

Sentob qishlog'i Nurota tumanida joylashgan bo'lib, ekologik va madaniy turizmni rivojlantirish uchun muhim hudud hisoblanadi. Qishloq dengiz sathidan taxminan 600 metr balandlikda joylashgan bo'lib, aholisi bir necha yuz kishini tashkil etadi. Sentobda an'anaviy tog' qishlog'i arxitekturasi — tosh uylar va devorlar saqlanib qolgan. Qishloqning tabiiy landshafti, boy o'simlik dunyosi, toza havo va qoyatoshlar sayr va turizm uchun qulay sharoit yaratadi.

2023-yil sentabr oyida Sentob qishlog'iga rasman "Turizm qishlog'i" maqomi berildi hamda BMT Jahon turizm tashkiloti tomonidan "Eng yaxshi turizm qishlog'i" nominatsiyasida e'tirof etildi. Hozirgi kunda bu hududda 20 dan ortiq mehmon uylari, bir nechta xostellar va turistik xizmat obyektlari faoliyat yuritmoqda. Sayyohlar milliy taomlar, hunarmandchilik va an'anaviy turmush tarzini o'rganish imkoniyatiga ega.

Konimex tumanida tashkil etilgan "Safari" turizm klasteri 500 nafardan ortiq sayyohni qabul qilish imkoniyatiga ega ekologik dam olish majmuasini taklif etadi. Ushbu hududda o'tovlar, cho'l lagerlari va dam olish zonalarini tashkil etilgan.

Viloyatda yangi turizm yo'nalishlari sifatida geoturizm va geologik landshaftlarga asoslangan turistik tashabbuslar rivojlanmoqda. Turistik mahsulot va xizmatlarning hududiy ulushi ortishi bilan mahalliy ishlab chiqarish va iqtisodiy imkoniyatlar ham kengaymoqda. Ajratilayotgan mablag'larning landshaftlarni saqlash va muhofaza qilishga yo'naltirilishi turizmning ekologik barqarorligini ta'minlaydi.

Navoiy viloyati 8 ta tumandan iborat bo'lib, ularni tabiiy xususiyatlariga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Cho'l tumanlari: Tomdi, Konimex, Uchquduq. Ushbu tumanlar Qizilqum cho'lining asosiy qismini tashkil etadi. Bu hududlarda qumli cho'llar, sho'rxok maydonlar va past tog' tizmalari (Bo'kantov, Muruntov) uchraydi. O'simlik qoplamasi asosan saksovul, yantoq, cherkez, shuvoq va boshqa cho'l butalaridan iborat.

2. Zarafshon vodiysi tumanlari: Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi. Mazkur hududlar voha landshaftiga ega bo'lib, sug'oriladigan yerlar, Zarafshon daryosi bo'yidagi to'qayzorlar va unumdor tuproqlar mavjud. Iqlimi nisbatan yumshoq bo'lib, qishloq xo'jaligi va agro-turizmni rivojlantirish uchun qulay hisoblanadi.

3. Tog'li tumanlar: Nurota. Bu hududda Nurota tog' tizmalari joylashgan bo'lib, archa o'rmonlari, tog' daryolari va yashil zonalar bilan ajralib turadi. Ushbu hudud ekoturizm, trekking va dam olish turizmi uchun muhim resurs hisoblanadi.

Navoiy viloyatida turizm iqtisodiyot, ekologiya va madaniy merosni o'zaro bog'lovchi kompleks soha sifatida rivojlanmoqda. Ekoturizm, geoturizm, madaniy va qishloq turizmini rivojlantirish hudud iqtisodiyotiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi, turistik oqimni oshiradi va hududning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Turizm boshqaruv obyekti sifatida turistik xizmatlarning majmuaviy tizimi orqali namoyon bo'ladi. Turistik xizmat — bu turist tomonidan sayohat davomida foydalaniladigan barcha moddiy va nomoddiy xizmatlar yig'indisidir.

"Qo'shimcha xizmatlar" tushunchasi turizmni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, turar joy yoki ovqatlanish xizmatlari mavjud bo'lmagan sharoitda turistik safarni amalga oshirish qiyinlashadi.

Turizm korxonalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ularning hamkorlik asosida faoliyat yuritishini talab qiladi. So'nggi yillarda turizm sohasida gorizontaal va vertikal kooperatsiya shakllari keng rivojlanmoqda.

Gorizontaal kooperatsiya — bir xil faoliyat yo'nalishiga ega turizm korxonalari o'rtasidagi hamkorlikdir. Bu mehmonxonalar, tur operatorlar va transport kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga oladi. Ushbu hamkorlik shaklining zamonaviy ko'rinishlaridan biri franchayzing tizimi hisoblanadi.

Vertikal kooperatsiya — turizm sohasining turli bosqichlarida faoliyat yurituvchi tashkilotlar integratsiyasini anglatadi. Bunga aviakompaniyalar, mehmonxonalar tarmoqlari va tur operatorlar o'rtasidagi hamkorlik kiradi.

Turizm sohasida marketing muhim ahamiyat kasb etadi. Turistik xizmatlar moddiy mahsulotlardan farqli ravishda oldindan baholab bo'lmaydigan xizmat turi hisoblanadi. Shu sababli, turistik mahsulot va xizmatlarni samarali targ'ib qilish marketing tizimi orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, turizm marketingi — bu iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish orqali turistik mahsulot va xizmatlarni yaratish, rivojlantirish va sotish jarayonini muvofiqlashtiruvchi kompleks boshqaruv tizimidir.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarning turistik-rekreatsion salohiyatidan to'liq va samarali foydalanishda marketing yondashuvlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz hududlarida milliy turistik korxonalar turistik xizmatlar bozorida katta tajriba va salohiyatga ega bo'lgan kuchli raqobatchilar bilan bir qatorda faoliyat olib bormoqda. Shu sababli, turizm tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan strategiya, eng avvalo, mamlakatimizdagi turistik hududlarning raqobatbardoshligini oshirish va ularni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Turizm sohasida turistik obyektlar raqobatbardoshligini baholash muammosi turizmni boshqarish, zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida muhim hamda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi sharoitda turizm uchun jozibador bo'lgan hududlar va mamlakatlarda turistik oqimlar tomonidan qondirilayotgan talab hajmi va tarkibini aniqlash, nafaqat turistik mahsulot va xizmatlar hajmi hamda tuzilmasini muntazam monitoring qilish, balki ularni boshqa mamlakatlarda yaratilayotgan turistik mahsulotlar bilan qiyosiy tahlil qilishni ham talab etadi.

Bunday taqqoslashlarning asosiy maqsadi turistlarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga yuqori sifatli turistik mahsulot va xizmatlarni taklif etish, shuningdek, turistlar ehtiyojini maksimal darajada qondirishning samarali mexanizmlarini aniqlashdan iboratdir. Ushbu maqsadlarga erishish orqali mamlakatlar va hududlar turizm sohasiga jalb etilgan resurslardan samarali foydalanish, davlat byudjeti daromadlarini oshirish hamda mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazkur sharoitda turizm sohasida obyektlarning raqobatbardoshligini shakllantirishga oid mavjud ilmiy va amaliy modellarni chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mamlakatimizning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda mahalliy turistik sanoatni rivojlantirish, hududiy turistik mahsulotlarni shakllantirish va ilgari surish hamda turistik hududlar raqobatbardoshligini baholashning zamonaviy uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi "“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PF-22-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-8050787>
2. Trusova, N. M., & Trofimova, I. A. (2017). Metodiki klassifikatsii turistskikh resursov na primere Kemerovskoy oblasti. Voprosy nauki i obrazovaniya, No. 11 (12). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/metodiki-klassifikatsii-turistskih-resursov-na-primere-kemerovskoy-oblasti> (accessed: 25.02.2024).
3. Leiper, N. (1979). The framework of tourism: Towards a definition of tourism, tourist, and the tourist industry. Annals of Tourism Research, Vol. 6, No. 4, pp. 390–407.
4. Pearce, D. (1989). Tourism Development. London: Longman. (Cited in: Mashkovich, E. A. (2007). Otsenka ponyatiya "turisticheskaya destinatsiya" v kontekste sovremennoy turistiki. Izvestiya Irkutskoy gosudarstvennoy ekonomicheskoy akademii, pp. 89.)
5. Ergashxodjaeva, Sh. (2022). Tsifrovoy marketing kak instrument razvitiya sfery turizma. Arkhiv nauchnykh issledovaniy, Vol. 2, No. 1. Available at: <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1366>
6. Volkov, S. K. (2018). Genezis turisticheskogo marketinga kak oblasti nauchnogo znaniya v teorii marketinga. Vestnik Kemerovskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Politicheskie, sotsiologicheskie i ekonomicheskie nauki, No. 4, pp. 33–46. DOI: 10.21603/2078-8975-2018-1-33-46
7. Alimova, M. (2019). Hududiy turizm bozorida integratsiyalashgan marketing konsepsiyasini amalga oshirish yo'nalishlari: nazariya va amaliyot. Ekonomika i innovatsionnye tekhnologii, No. 3.
8. Krippendorf, J. (1986). Tourism in the system of industrial society. Annals of Tourism Research, Vol. 13, No. 4, pp. 517–532.
9. Zubkova, M. S. (2011). Zadachi marketinga kak sistemy na predpriyatiyakh turistskogo biznesa. Uchenye zapiski Krymskogo federalnogo universiteta imeni V. I. Vernadskogo. Ekonomika i upravlenie, No. 4. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/zadachi-marketinga-kak-sistemyna-predpriyatiyah-turistskogo-biznesa> (accessed: 25.02.2024).
10. Nurmuxammedova, M. X., & Abduvoxidov, A. A. (2021). Turistik klasterlarni yaratish va rivojlantirishning nazariy asoslari. Innovatsii v ekonomike, Vol. 4, No. 6.
11. Begimqulov, J., & Begimqulov, J. (2021). Marketingga asoslangan turizm xizmatlarini rivojlantirish. Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, Vol. 1, No. 1, pp. 54–62.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
